



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

XORAZM SHEVASIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK JIHATLARI SEMANTIC ASPECTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE KHOREZM DIALECT

Ilmiy rahbar: O‘razova Iqbol Abdikarimovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Qurambayeva Banu Zafar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

[DOI. 10.52773/tsuull.conf.2026.IGYT3412](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026.IGYT3412)

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm shevasidagi frazemalarning semantik xususiyatlari zamonaviy semantik, kognitiv va pragmatik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazemalarning ko‘chma ma’no hosil qilishi, obrazlilik darajasi, baholovchi-emotsional yuklamasi hamda nutqiy funksiyasi asosiy mezon sifatida olinadi. Xorazm shevasiga xos frazemalar adabiy til birliklaridan semantik jihatdan farqlanishi, xalq tafakkuri, kundalik hayot tajribasi va madaniy stereotiplar bilan uzviy bog‘liqligi bilan tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlari: *frazema, dialektal frazema, semema, ma’no sema, ko‘chma ma’no, metafora.*

Annotation. *This article analyzes the semantic features of phrasemes in the Khorezm dialect based on modern semantic, cognitive, and pragmatic approaches. The study takes as its main criteria the formation of figurative meaning, the degree of imagery, evaluative–emotional load, and discourse functions of phrasemes. Phrasemes characteristic of the Khorezm dialect are described as semantically distinct from units of the literary language and as being closely connected with folk cognition, everyday life experience, and cultural stereotypes.*

Keywords: *phraseme, dialectal phraseme, sememe, semantic component (seme), figurative meaning, metaphor.*

Frazemalarning semantik xususiyatlari ularning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, obrazlilik darajasi, baholovchi yuklamasi va nutqdagi funksiyasi bilan belgilanadi. Hududiy shevalarda, xususan, Xorazm shevasida frazemalar semantik jihatdan adabiy tildan farq qilib, xalq tafakkuri, hayotiy tajriba va madaniy stereotiplar asosida

shakllanadi. Shu bois Xorazm frazemalarining semantik tahlili ularning ichki ma'no mexanizmini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Xorazm shevasidagi frazemalarning o'ziga xos semantik xususiyati:

1. *“Tanishlik” semali frazemalar.* Xorazm shevasidagi ayrim frazemalar oldindan bilish, tanishlik, xotirada mavjudlik semasini ifodalaydi. Masalan, *“Go'zzima dim issi go'rinmoq”/ “Go'zzima dim issi bosilmoq”*. Mazkur frazemada go'z (ko'z) idrok organi sifatida emas, balki xotira va ong ramzi sifatida qo'llaniladi. *“Issi go'rinmoq”* semasi orqali *“avvaldan tanishlik”* ma'nosi yuzaga keladi. Bu hol semantik jihatdan persektiv-metaforik ko'chish natijasidir.

2. *“Nutq” semali frazemalar.* Ba'zi frazemalar nutqiy faoliyat va muloqot madaniyatini baholashga xizmat qiladi. Masalan, *“og'zimni yongsilama”* frazemasini semantik jihatdan *“aytilgan gapni so'zma-so'z takrorlash”* ma'nosini bildiradi. Bu yerda og'iz nutq ramzi sifatida ishlatilgan bo'lib, frazema nutqiy tanqid semasini o'zida mujassamlashtiradi.

3. *“Munosabat” va “yo'ldoshlik” semali frazemalar.* Xorazm shevasidagi ayrim frazemalar ijtimoiy munosabat va hamrohga nisbatan xatti-harakatni ifodalaydi. Misol tariqasida *“Ari bn galib o'ynashi bilan getmoq”* frazemasini obrazli semantikaga ega bo'lib, unda *“xiyonat, beparvolik va yolg'iz qoldirish”* semalari mujassam. Frazemada *“beqarorlik”* va *“tezkorlik”* ramziy ma'noda berilgan.

4. *“Yolg'on” semali frazemalar.* Haqiqatni buzib ko'rsatish Xorazm frazemalarida aniq semantik guruh sifatida namoyon bo'ladi. Chunonchi, *“Ko'pirtirmin so'llamoq”* frazemasida *“ko'pirtirish”* metaforasi orqali bo'lmagan narsani bo'lgandek ko'rsatish semantikasi yuzaga keladi. Bu hol giperbolik ko'chma ma'noga asoslanadi.

5. *“Ijtimoiy baho” va “g'iybat” semali frazemalar.* O'g'uz lahjasida kimningdir yaxshi ishini yoki yomon ishini muhokama qilganda *“g'iybat qilmoq”* leksemasi o'rnida nutqning keskin aniq chiqishi uchun ushbu frazeologizmlar qo'llaniladi: *“Yurti alab chiqmoq”*; *“Yurti alakdan o'tirmoq”*. Mazkur frazemalar semantik jihatdan ijtimoiy salbiy baholashni bildiradi. *“Yurt”* so'zi individual emas, balki jamoa ramzi sifatida ishlatilgan. Ya'ni bir yoki ikki kishi haqida g'iybat qilingan bo'lsa ham ushbu frazemalar orqali bo'rttirish konnotativ semasi ustunlik qilingan.

6. *“Vaqt” va “kundalik hayot” semali frazemalar.* *Tovuqdan burun toro chiqmoq* frazemasini vaqtni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Unda tabiat va hayvonot bilan bog'liq obraz orqali erta yotish ma'nosi beriladi. Bu xalqning biologik ritmga asoslangan tafakkurini ko'rsatadi.

7. *“Niyat” va “yashirin maqsad” semali frazemalar.* *Og'zini isqamoq* frazemasini semantik jihatdan bilvosita axborot olish, yashirin niyatni anglash

ma'nosini ifodalaydi. Bu yerda og'iz nutq manbai sifatida emas, balki axborot kaliti sifatida talqin qilinadi. “Og'zini isqamoq” frazemasi Xorazm shevasida semantik jihatdan bilvosita axborot olish, shaxsning ichki niyatini, yashirin maqsadini aniqlash ma'nosini ifodalaydi. Ushbu frazemaning semantik tuzilishi metonimik va kognitiv asosga ega bo'lib, u oddiy nutq faoliyatini emas, balki axborotning yashirin qatlamini ochishga qaratilgan jarayonni bildiradi. Frazemaning asosiy komponenti bo'lgan “og'iz” leksemasi bu yerda anatomik a'zo sifatida emas, balki nutq, axborot va niyatning tashqi namoyon bo'lish nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu hol “*tana a'zosi* → *psixik jarayon*” modeliga asoslangan semantik ko'chishdir. Ya'ni og'iz orqali aytiladigan gap insonning ichki dunyosi, reja va niyatlari haqida axborot beradi. Frazeologik birlik tarkibidagi “isqamoq” fe'li to'g'ridan to'g'ri so'rash emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatish semasini hosil qiladi. Natijada frazemaning umumiy ma'nosi ochiq muloqot emas, yashirin strategiya asosida axborot olish tushunchasini bildiradi. Mazkur frazema pragmatik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U nutq jarayonida bevosita so'rash noo'rin yoki mumkin bo'lmagan vaziyatlarda qo'llaniladi. Demak, “og'zini isqamoq” frazeologizmi kommunikativ strategiya sifatida ishlaydi va nutq egasining ijtimoiy vaziyatni hisobga olgan holdagi harakatini ifodalaydi.

8. “*O'lim*” semali frazemalar. “*Dik oyoqda getdi*” frazemasi evfemistik semantikaga ega bo'lib, o'lim tushunchasi to'g'ridan to'g'ri emas, balki yumshatilgan shaklda ifodalanadi. Bu xalq mentalitetida o'lim mavzusiga ehtiyotkor munosabat mavjudligini ko'rsatadi.

9. “*Xohish*” va “*istamaslik*” semali frazemalar. “*Oyoqi tortmaslik* frazemasi ko'pincha “*oyoqim tortmin duribdi*” shaklida ishlatiladi. Mazkur iborada harakat a'zosi orqali ruhiy holat – “istamaslik” semasi ifodalangan. Bu hol somatik metafora orqali yuzaga kelgan.

10. “*Kibr*” va “*me'yor*” semali frazemalar.

“*Damingni qotti omo*”. Mazkur frazema semantik jihatdan ogohlantiruvchi-baholovchi ma'noga ega bo'lib, kibr va haddan oshishdan qaytarish semasini bildiradi.

11. “*Bekorchilik*” semali frazemalar. “*Ita soya bermaslik*”. Bu frazema mutlaq harakatsizlik va foydasizlik semantikasi bilan ajralib turadi. “Soya bermaslik” – natijasizlik ramzi.

12. “*Qoniqish*” va “*mukammallik*” semali frazemalar. “*Yurakni qurtini o'ldirmoq*”. Bu frazema semantik jihatdan ichki qoniqish va ishni mukammal bajarish ma'nosini ifodalaydi. Yurak ruhiy markaz sifatida talqin qilinadi.

13. “Asabiylashish” semali frazemalar. “Yurakni o'ynatmoq”. Ushbu frazema psixologik zo'riqish va jahl chiqarish semasini bildiradi. Bu somatik metafora asosida yuzaga kelgan.

14. “Me'yor” va “chegarani bilish” semali frazemalar. “Assingnan og'ma” frazemasini axloqiy va ijtimoiy chegarani saqlash semantikasi bilan xarakterlanadi. Bu jamiyatda me'yor tushunchasi muhim ekanini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm shevasidagi frazemalar semantik jihatdan: metafora va ramziy ma'noga asoslangan, somatik (tana a'zolari) semantika ustun, baholovchi va emotsional yuklamaga ega, evfemistik va ogohlantiruvchi ma'nolarni ifodalaydi, xalq tafakkuri va madaniy stereotiplarni aks ettiradi. Ushbu dalillar Xorazm shevasidagi frazemalarning mustaqil va boy semantik tizimga ega ekanini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1. Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият, II жилд. 2000.
2. Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2017
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom, I-VI jildlar. 2022.
4. Сирожиддинов, Ш. У. Х. Р. А. Т. Жизнь и творчество Алишера Навои, гуманистические идеи в его произведениях. *INFOLIB:ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала "E-LINE PRESS"*, (1)
5. Kholmanova, Z. T., & Komilova, G. R. (2021). *The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1–?. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00876.4>
6. Muhammadiyeva, D. (2024). “BOBURNOMA” NING QOZOQCHA TARJIMASI BILAN BOG 'LIQ MUAMMOLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 304-307.
7. Iqbol Abdikarimovna O'razova. [XIV asrning 2-yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi nom bildiruvchi frazemalar](#). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 2022. P. 829-835
8. Shamsiyeva M. The author's linguocognitive approach to the depiction of a landscape in a literary text. *Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika*—<https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>. Special Issue –4(2024) / ISSN 2181-3701
9. X Zulxumor [BOBUR–SEMANTIKANING SOHIR BILIMDONI](#) - Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в ..., 2023
10. K Mushtariy [The Names of Drugs In â€ œKutadgu Biligâ€](#) *Drug Designing & Intellectual Properties International Journal* 2 (2), 180-181